

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA MILLIY OBRAZ VA BADIY TAFAKKURNING LINGVOPOETIK TALQINI

Malikova Charos Ma’rufjon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tillar kafedrası, O‘zbek tili va adabiyoti

fakulteti 1-kurs magistranti

+998500905124

cmalikova09@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek milliy adabiyotida yuksak mavqe egallagan, millatning o‘zligini ifoda etuvchi xususiyatlarni o‘zida jamlagan yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning asarlarida milliy obraz va badiiy tafakkurning lingvopoetik talqinini ko‘rishimiz mumkin. Adibning nasriy asarlarida milliy mentalitet, oila, vatan, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni ifodalovchi obrazlar bilan bir qatorda, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar fonida shakllangan yangi turdagi xarakterlar ham chuqur badiiy talqin etilgani ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, yozuvchining obraz yaratishdagi uslubiy mahorati, xalqona til va psixologik tahlil usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Obraz, lingvopoetik talqin, portret, milliylik, milliy xarakter, milliy portret, personaj, ijtimoiy o‘zgarishlar, xarakter, tip.

Abstract: In this article, we can see the linguopoetic interpretation of the national image and artistic thinking in the works of our writer Otkir Hoshimov, who occupies a high position in Uzbek national literature and embodies the features that express the identity of the nation. In the prose works of the writer, along with the images expressing values such as national mentality, family, homeland, and kindness, it is shown that new types of characters formed against the background of social changes in society are also deeply artistically interpreted. The writer's stylistic skills in creating images, folk language and methods of psychological analysis are also highlighted.

Keywords: Image, linguopoetic interpretation, portrait, nationality, national character, national portrait, character, social changes, character, type.

Аннотация: В данной статье рассматривается лингвопоэтическая интерпретация национального образа и художественная мысль в произведениях нашего писателя Откира Хошимова, занимающего высокое место в узбекской национальной литературе и воплощающего черты, выражающие национальную идентичность. В прозаических произведениях писателя, наряду с образами, выражающими такие ценности, как национальное самосознание, семья, родина и доброта, показано, что новые типы персонажей, сформировавшиеся на фоне социальных изменений в обществе, также глубоко интерпретируются в

художественном плане. Подчеркиваются также стилистические навыки писателя в создании образов, народный язык и методы психологического анализа.

Ключевые слова: Образ, лингвопоэтическая интерпретация, портрет, национальность, национальный характер, национальный портрет, персонаж, социальные изменения, персонаж, тип

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti, aniqrog‘i nasri rivojida O‘tkir Hoshimovning munosib o‘rni bor. Mustabid tuzum sharoitida u o‘zining haq so‘zi bilan el orasida e‘tibor qozondi. Yozuvchi o‘z asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Ehtimol, uning hikoya, pyesa, hikoyalarda yuzaki o‘rinlar bordir, ammo adib hech qachon yolg‘on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat ishlariga aralashib vijdonini sotmagan, murosasozlik yo‘liga kirmagan. U o‘tkinchi mayllarga berilmay, so‘z san‘atining azaliy muammosi – shaxs jumbog‘i, ijtimoiy adolat tuyg‘usi ifodasi bilan qiziqdi. Muallif qo‘lidagi qalam go‘yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi uning hikoyalari she‘rdek, dostondek o‘qiladi, ular yakka so‘zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, hikoyalari ko‘p ovozli simfoniyani eslatadi, hatto uning badiiyalari, publisistik maqolalarini o‘qiganda inson ko‘ngil xazinasining, tuyg‘ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, keskin ruhiy dramalar, fojiiyalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aksado berib turadi.

O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi bir qancha tadqiqotlar uchun manba vazifasini o‘tagan. Chunonchi, Ibrohim G‘ofurov, Abdug‘afur Rasulov, Umarali Normatov, Murod Ibrohimov, Norboy Xudoyberganov, Matyoqub Qo‘shjonov, Bahodir G‘ulomov, Ozod Sharafiddinov, To‘lqin Rasulov, Sobir Mirvaliyev, Salohiddin Mamajonov, Nuriddin Shukurov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Umrzoq O‘ljaboyev, Said Ahmad, Ortiq Abdullayev kabi adabiyotshunos hamda munaqqidlar ijodida yozuvchi hayoti va ijodining turli qirralari haqida mulohazalar yuritilgan. Belinskiyning fikriga ko‘ra, “milliylik yozuvchining xizmati emas, balki ijodning shoir tomonidan uncha zo‘r berishni talab qilmaydigan zaruriy shartdir.... Milliylik shoirni ulug‘ qilmaydi, balki buyuk talant shoirni milliy qiladi... agarda asar badiiy bo‘lsa, u o‘z-o‘zidan milliy bo‘ladi”. N.V.Gogol ham milliylik tog‘risida gapirib: “Milliylik sarafani (ayollar kiyimi) – portret tasvirlashda emas”, deydi. Binobarin, milliylik badiiy asarga, undagi voqealar, obrazlar tizimi, ularning xarakteri hamda portretiga kiygizilgan libosdir. Qardosh xalqlar adabiyotida milliylik turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Xususan, “Muxtor Avezov asarlaridagi ijobiy qahramonlar siymosida qozoq xalqining milliy belgilarini ko‘rsak, Berdi Kerboboyev asarlaridagi qahramonlar orqali turkman milliy xarakterini, Chingiz Aytmatov qissalarida qirg‘izlarga xos xislatlarni va Oybek romanlarida o‘zbek milliy xarakterini ko‘ramiz. Ammo M.Avezov ham,

B.Kerboboyev ham, Ch.Aytmatov ham, Oybek ham o`zlari mansub bo`lgan xalqning milliy xarakterini mahorat bilan badiiy ifodalash orqali umuminsoniy g`oyalarni ko`tarib chiqqanlar. Milliy xususiyat xalqning urf-odatlarini, tarixiy an`analari, o`ziga xos tafakkur tarzlarini, til xususiyatlarini, ayni xalq yashayotgan joyning relyef-toponimik belgilari kabilarda ham yaqqol ko`rinadi”

Umuman O`tkir Hoshimov ijodida an`anaviy va yangicha obrazlar tizimi o`ziga xos tarzda aks ettirilgan. Adib asarlarini tahlil qilish jarayonida shunga amin bo`ldikki, yozuvchi o`z asarlarida milliy madaniyat va xalqona an`analarni saqlagan holda, zamonaviylik va psixologik chuqurlikka ega yangi obrazlar yaratishda muvaffaqiyatga erishgan. An`anaviy obrazlar orqali u milliy qadriyatlar, mehr-oqibat va oilaviy rishtalarni yuqori badiiy uslubda yoritgan bo`lsa, yangicha obrazlarda insonning ichki ruhiy kechinmalari, ziddiyatlari va hayotiy izlanishlari jonli aks ettirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, O`tkir Hoshimovning nasriy uslubi xalqona til, nozik psixologizm va falsafiy-ramziy ifodalarga boy bo`lib, bu uning obrazlarini yanada boy va mazmunli qiladi. An`anaviy va zamonaviy obrazlar uyg`unligi esa uning ijodini o`zbek nasrining rivojlanishida yangi bosqichga olib chiqqan muhim sanaladi. Shu tariqa, O`tkir Hoshimov asarlari o`zbek adabiyotida milliy obraz va badiiy tafakkurning namunasi sanaladi, nafaqat o`tgan va hozirgi davrni, balki kelajak nasrining yo`nalishlarini ham belgilovchi muhim ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Foyalangan adabiyotlar:

1. Abdullayev Ne`mat, Madraimov Abdumajid. O`zME. – Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
2. Boboyev To`xta. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O`zbekiston”, 2001. – 560 b.
3. Hoshimov O`tkir. O`zbeklar: Hikoyalar, o`ylar, hajviyalar/. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 218 b. 4. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – T., 2005. – 272 b.
4. Abduvaxidov B. O`zbek nasrida obrazlar poetikasi. -Toshkent: Fan, 2010. Ergashev J. O`zbek adabiyotida obrazlar tahlili.- Toshkent: O`qituvchi, 2020.
5. Hoshimov O`. O`zbeklar.-T: O`qituvchi. 2006 yil 2. Rasulov A. Ardoqli adib.O`tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., “Sharq”, 2001 Jo`rayev.
6. Sh O`tkir Hoshimov ijodining o`ziga xos qiralari № 1 (2020): Journal of Horizons of philologiya.